

O'ZBEKISTONDA TURIZMNING RIVOJLANISHI – MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR

Israilova Feruza G'ayrat qizi

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Talabasi

Email: feruzaisrailova2292@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqola O'zbekistonda turizmning rivojlanishidagi kamchiliklar va imkonlatlariga bag'ishlangan.*

Kalit so'zlar: *Reklamaga sarmoya kiritish, Viza tizimini, Ichki parvozlar, Turizmni Rivojlantirish Davlat Qo'mitasi.*

O'zbekistonda turizm sanoatini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega. So'nggi islohotlar natijasida turizm sanoati besh barobar oshti. Bu degani muammolar yo'q degani emas. Bularga tibbiy xizmatlar, transport va to'lov tizimlari, tegishli mehmonxonalar va undagi servis, til yordami va turistlar uchun malumotning yetishmasligi.

O'ylaymanki, O'zbekiston o'zining madaniy va tabiiy diqqatga sazovor bo'lgan joylarni o'rganishi va turist oqimini ko'paytirish uchun shu joylarni yetarli darajada reklamaga sarmoya kiritishi kerak. Shuningdek, qurilish, tadbirkorlik va boshqa xususiy sektorlarni rivojlantirish va buning natijasida ularni mamlakatning turizm salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun jalb qilish zarur. O'zbekiston o'zining buyuk tarixiy, arxeologik, memoriy va tabiiy boyliklari bilan katta salohiyatga ega deb hisoblayman. Mamlakatning xilma-xil ekologiyasi, to'rt faslning bo'lishi va tog'lardan to dashtlargacha ekoturizm uchun katta yo'l ochib beradi. Mamlakatimizda 160 dan ortiq tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan musulmon obektlari va o'nlab diqqatga sazovor joylar mavjud. Bular qatoriga YUNESKO ning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan mashhur qadimiy shaxarlar, jumladan, Samarqand, Buxoro, Xiva va Shaxrisabzdir va vatanimiz islomiy ildizlarga ega davlatdir.

Turizm sanoati O'zbekistonda 2016-yildan buyon isloh qilish va jonlantirishga intilayotgandan soholardan biridir. Islohotlar o'z ichiga yangi ish o'rinlarini yaratish va biznes imkoniyatlarni oshirishga qaratilgandir. Bugungi kunda turistlar uchun eng katta qulaylik bu - Visa tizimini joriy qilinganligidir. Avvallari Visa olish jarayonining murakkabligi ham uning rivojlanish harakatlariga to'sqinlik qilgan. Bu muammoni bartaraj etish maqsadida O'zbekistonda 2018-yil 15-iyuldan boshlab electron vizalar joriy etildi. Buning uchun sayohatchilar sayohatdan kamida 3 kun oldin electron viza uchun ariza topshirishlari kerak boladi. Bularga qo'shimcha qilib ichki

parvozlarni ham aytish mumkin. Mamlakatga kelgan turist bizda boshqa viloqatga borish uchun avtomobildan kora, ichki parvozlarni avzal ko'radi. Ichki avia parvozlarni yaxshilash uchun ham qator qonunlar qabul qilindi. Jahon sayyohlik tashlikoti tomonidan 2014-yilda O'zbekistondagi xalqaro sayyohlarning tez-tez qayd etilgan noqulayliklarni elon qilgan edi. Bularga ko'ra tolov tizimidagi muommolar yani bankamat orqali naht pul olish imkoniyatining yo'qligi, elektr taminoting tez-tez uzilishi, tibbiy xizmatlarning mavjudliki lekn toza va zamonaviy emasligi, internet bilan muommolar (Wi-Fi tarmog'iga kirishning kamligi yoki juda sekinligi)

Mamlakat yo'llarini alohida takidlash lozimki, oldin ravon yo'llar va ko'priklar sanoqli bo'lgan, ishonamanki bizga 10 yil oldin tashrif buyirgan turizm xozir kelib, mamlakatimizni yana tomosha qilsa taniy olmay qoladi. Avtomobil va taksi xizmatlarida ham katta o'zgarish boldi va hozirda aeroport atrofida mahsus yangi rusumdagi avtomobillardan foydalangan holda qulay taksi xizmatlari tashkil etildi. Statitsikaga ko'ra , bizga ko'proq Yoshi katta turistlar kelar ekan. Sababi bizda tarixiy joylar ko'p, lekn turistlar ichida yosh avlodning kamligi ham bizda yetarlicha kamchiliklar hali hamon borligidan dalolat beradi. Bunga misol qilib bizda ular uchun yetarli darajada ko'ngil ochar joylar yo'qligi deb bilaman. Bularga , clublar, barlar , kechki tomoshalar va mehmonhonalardagi ularga mos servicening yo'qligidadir. Bulardan ham oldin ilgari bizda mehmonhonalarga faqat nikoh hujjati bilangina kirish mumkin bo'lgan , yevropaga nazar soladigan bo'lsak aksariyat turislar turmush qurmagan yoshlarni tashkil qilsa va ular bizdagi eng katta muommo mehmonhonalarda 1 ta honani bron qlolmaslikda bo'lgan. Lekn xozirgi kunlarda yangi qonunlarga asosan , barcha mehmonxonalar nikoh xujjatisiz mehmonlarni qabul qilishga majburdir. Ishonamanki , bu kabi qonunlar O'zbekistonning yaqin orada turizm sanotida sezilarli darajada o'sishiga olib keladi.

So'nggi yillarda sayohatning yangi turlari shu jumladan ekologik turizm faol rivojlanmoqda. Beldersoy, Zomin, Chimyon dam olish maskanlari ham bunga misol bo'la oladi. Bu maskanlar atorifida yashaydigan aholi, kelayotgan turislar hisobiga kun kechirishadi va bu albatta ish o'rinlarining bandligiga ham katta yordam beradi. Bu dam olish maskanlari nafaqat turistlarga balki o'zimizning shaxar ahosiliga ham yozu –qish xizmat qiladi. Zomin tog'larining toza havosi ming dardga davoligini biz yaxshi bilamiz lekn mana shu afzalliklarni va xizmatlarni dunyoga ko'rsatish uchun ham reklamaga sarmoya ajratilishi kerak deb o'ylayman. O'zbekiston, jahon bozorida mamlakat obrozsini shakllantirish va saqlash mamlakatda muntazam ravishda o'tkazilayotgan muhim tandbirlab ro'l o'ynaydi. Eng

muhimlaridan biri bo'lgan “ Ipak yo'li turizm” Toshkent xalqaro sayyohlik yarmarkasi har yili o'tkaziladi. Mamlakatimizning vakillari ham xalqaro yarmarkalarda ishtrok etib kelmoqda va ularni ham O'zbekistonning eng diqqatga sazovor joylari bilan tanishtirib bilim almashib kelishmoqda. Xozirda O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi mavjud va bu qo'mita o'z oldiga tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda keying 5 yil ichida turizmni ikki barobarga oshirish maqsadini qo'ygan. Buning natijasida yuz mingalab yangi ish o'rinlari yaratiladi , aholi daromatlari oshadi va valyuta ayirboshlash hajmi oshadi.

Shuni hulosa tarzida aytamanki, “2025 yilga borib xorijlik sayyohlar soni 7 millionga yetishi, chet ellik sayyohlardan keladigan yillik valyuta tushumi esa 2 milliard dollarga yetishi kutilmoqda”.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Uzbekistan - Country Commercial Guide Travel and Tourism Last published date: 2022-07-08
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-apreldagi “Turizm, sport va madaniy meros sohalarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6199-son Farmoni
3. 2021-yil 6-apreldagi “Turizm va sport vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida”gi PQ-5054-son qarori
4. Tourism in Uzbekistan: opportunities and new challenges Uzbekistan Tourism Statistics 1996-2023 yillar